

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida jami 481,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,4 % ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 4,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % ni, hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 48,9 % ni tashkil etdi.


Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,8 % yoki 355,6 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,9 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 25,4 % yoki 122,2 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi, hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda jami 355,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringin qariyb 73,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga, 25,4 % i norasmiy sektor hissasiga va qolgan 0,8 % i esa yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 73,8 % ni tashkil etdi yoki 355,6 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,9 % ni tashkil etdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qariyb 4,1 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 122,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 25,4 % ga teng bo‘ldi. Shu bilan birga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi.



## 2020-yilning yanvar-mart oylarida

### shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan, % da)


Viloyatda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (84,9 %), Sharof Rashidov tumanida (80,2 %) amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich Paxtakor (73,2 %), Yangiobod (67,0 %) hamda Zafarobod (66,2 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.



Kichik korxona va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin eng kam ulushi Forish (42,5 %) va G’allaorol tumanlarida (45,3 %) kuzatildi.

Ushbu tumanlar bo‘yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, mos ravishda ulushlari 57,5 % va 54,7 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Qurilish ishlaringin shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Forish, Sharof Rashidov, Zomin, G'allaorol tumanlarida kuzatildi. Forish tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % bo'lishi ta'minlandi.


Sharof Rashidov, Zomin va G'allaorol tumanlarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari barpo etilayotganligi sababli o'sish sur'ati 107,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan 79,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 12,4 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Maxsus qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi esa 8,5 % ga to'g'ri keldi.



## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari (mlrd. so‘m)


Shahar va tumanlar kesimida bajarilagan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 236,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunga izoh sifatida shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko‘p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko‘ngil ochar maskanlarini barpo etilayotganini ta’kidlash mumkin.



Shu bilan bir qatorda, yuqori sur’atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bu tumanda bajarilgan qurilish ishlari 74,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining asosini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar tashkil qilmoqda.


## 2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlaring iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2020-yil yanvar-mart



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019-yil yanvar-mart




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2020-yil  
yanvar-mart

Jizzax viloyatining qurilish ishlari

## 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi.

Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa (ulushi 8,5 %) o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan ulushi, % da)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 462,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,9 % ni, davlat tasarrufidagi qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi esa 4,1 % ni tashkil qildi.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan ulushi, % da)



Jizzax viloyatida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulushi Jizzax shahri hissasiga (49,1 %) to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov (15,5 %), G‘allaorol (6,3 %) va Zomin (5,6 %) tumanlari ham viloyatning qolgan tumanlariga nisbatan yuqori ulushga egaligini ko‘rish mumkin.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo‘limi**

Aloqa telefoni: (0372) 221-53-73